



SUD EKSPERTIZASIDA SPERMA DOG‘LARINI ANIQLASHNING
ZAMONAVIY VA AN‘ANAVIY YONDASHUVLARI

O‘rnashova G.O’

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Dolzarbligi Sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida sperma dog‘larini aniqlash va ularni to‘g‘ri identifikatsiya qilish jinsiy jinoyatlar bilan bog‘liq holatlarda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. An‘anaviy fizik-kimyoviy, mikroskopik hamda fermentativ usullar ko‘p yillar davomida qo‘llanib kelinayotgan bo‘lsa-da, ayrim vaziyatlarda ularning sezuvchanligi va spetsifikligi yetarli darajada bo‘lmasligi mumkin. Hozirgi kunda immunologik testlar, DNK-analiz va molekulyar-biologik yondashuvlarning sud ekspertizasiga joriy etilishi biologik izlarni yuqori aniqlikda aniqlash imkonini bermoqda. Ushbu zamonaviy metodlar minimal miqdordagi biologik material bilan ishlash, degradatsiyaga uchragan namunalardan ishonchli natija olish hamda ekspert xulosalarining obyektivligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois sperma dog‘larini aniqlashning an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlarini qiyosiy o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Sud ekspertizasida sperma dog‘larini aniqlashda an‘anaviy va zamonaviy usullarning samaradorligi, mikroskopik (Christmas Tree bo‘yash) va immunologik PSA (p30) testi asos qilib olindi: aniqligi hamda ishonchligini qiyosiy baholash nazariy baholandi.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotda sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida keng qo‘llaniladigan sperma dog‘larini aniqlash usullari o‘rganildi. Asosiy material sifatida turli tashuvchi obyektlardagi biologik izlar tanlab olindi. Sperma hujayralarini aniqlashda an‘anaviy mikroskopik usul — “Christmas Tree” bo‘yash metodi qo‘llanildi, bu usul spermatozoidlarning morfologik tuzilishini vizual aniqlash imkonini berdi. Zamonaviy yondashuv sifatida esa immunologik immunoxromatografik PSA (p30) testi ishlatildi. Ushbu test seminal suyuqlikka xos antigenlarni aniqlash orqali yuqori sezuvchanlikka ega hisoblanadi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil qilinib, usullarning amaliy samaradorligi baholashga harakat qilindi.

Xulosa: Nazariy tekshiruvlar natijalari sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida sperma dog‘larini aniqlashda an‘anaviy va zamonaviy usullarning o‘ziga xos afzallik hamda cheklovlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Mikroskopik tekshiruv, xususan “Christmas Tree” bo‘yash usuli spermatozoidlarning morfologik tuzilishini bevosita vizual aniqlash imkonini berib, spermaning mavjudligini tasdiqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hamda afzalligi uning nisbatan oddiyliги va laboratoriya sharoitida keng qo‘llanilishidadir. Biroq biologik material miqdori kam bo‘lgan yoki degradatsiyaga uchragan namunalarda spermatozoidlarni aniqlash qiyinlashadi, bu esa usulning sezuvchanligini cheklaydi.

Hozirgi zamonaviy immunologik yondashuv — PSA (p30) immunoxromatografik testi esa seminal suyuqlikka xos antigenlarni aniqlash orqali sperma dog‘larini yuqori sezuvchanlik bilan aniqlash imkonini berdi. Ushbu testning ustun jihati shundaki, u spermatozoidlar to‘liq saqlanmagan yoki butunlay parchalangan holatlarda ham musbat



natija berishi mumkin. Natijada sperma mavjudligini erta va tezkor aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, PSA testi spermaning manbaini individual darajada identifikatsiya qilish imkonini bermaydi, bu esa uni mustaqil yakuniy xulosa uchun yetarli emasligini ko'rsatadi.

Nazariy baholash davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, sperma dog'larini aniqlashda bitta usul bilan cheklanish sud ekspertizasi xulosasining to'liqligi va ishonchliligini pasaytirishi mumkin. Eng samarali yondashuv — an'anaviy mikroskopik usullarni zamonaviy immunologik testlar bilan kompleks qo'llashdir. Bunday integratsiyalashgan yondashuv biologik dalillarni yanada aniq baholash, noto'g'ri manfiy yoki musbat natijalar ehtimolini kamaytirish hamda sud-tergov jarayonida adolatli qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Aniqroq qilib aytganda, sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida sperma dog'larini aniqlashda an'anaviy va zamonaviy usullarni uyg'unlashtirish ilmiy asoslangan, ishonchli va amaliy jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi. Yana ham tadqiqot natijalari kelgusida sud ekspertizasida biologik izlarni tekshirish metodologiyasini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.